

XX ASR NEMIS VA O‘ZBEK DRAMATURGIYASIDA DAVR TALQINI

Dadajonov Oybek Zokirjonovich,*Farg‘ona davlat universiteti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr nemis va o‘zbek dramaturgiyasining rivojlanish jarayoni va davr talqini masalasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy va tarixiy omillarni inobatga olgan holda, dramaturgiya janri har ikki xalqning milliy va zamonaviy tarixidagi o‘zgarishlarni aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: dramaturgiya, davr talqini, ma‘rifatparvarlik, naturalizm, psixologik drama, g‘oyaviy-estetik izlanishlar, jadidchilik harakati, oqim, jamiyat.

Аннотация. В данной статье научно анализируются процессы развития немецкой и узбекской драматургии XX века, а также проблема интерпретации эпохи. С учётом социально-политических, культурных и исторических факторов драматургия рассматривается как художественный жанр, отразивший изменения в национальной и современной истории обоих народов.

Ключевые слова: драматургия, интерпретация эпохи, просветительство, натурализм, психологическая драма, идейно-эстетические искания, джадидское движение, течение, общество.

Annotation. This article provides a scholarly analysis of the development of German and Uzbek dramaturgy in the twentieth century, as well as the issue of interpreting the historical period. Taking into account socio-political, cultural, and historical factors, dramaturgy is examined as a literary genre that reflects the changes in the national and modern history of both peoples.

Key words: dramaturgy, Interpretation of the era, Enlightenment, Naturalism, Psychological drama, Ideological and aesthetic explorations, Jadid movement, Movement, Society.

Kirish. Davr talqini dramaturgiyaning muhim estetik-kategoriylaridan biri bo‘lib, u muayyan tarixiy bosqichning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy manzarasini badiiy idrok etish orqali namoyon bo‘ladi. Dramatik asarda davr talqini faqat voqea va obrazlar tasviri bilan cheklanmay, balki zamon ruhini, jamiyat qadriyatlarini hamda inson psixologiyasini tahlil qilishni ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan dramaturgiya jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beruvchi muhim badiiy vosita hisoblanadi. Maqolada XX asr nemis va o‘zbek dramaturgiyasida davr talqinini o‘ziga hos jihatlarini ko‘rib, tahlil qilishga harakat qildik.

Nemis dramaturgiyasida davr talqini o‘zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Germaniya tarixidagi siyosiy, madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlar dramaturg yozuvchilar tomonidan ko‘p tahlilga tortilgan. Nemis adabiyotida eng ko‘p tahlilga tortilgan davr - bu nemis ma‘rifatchilik davridir. Nemis ma‘rifatparvar dramaturg yozuvchilar Lessing, Gyote va Schillerning nemis dramaturgiyasida davr talqini juda keng va murakkab tushuncha bo‘lib, nemis dramaturgiyasi va teatrida o‘zining tarixiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlari fonida namoyon bo‘ldi.

O‘zbek xalqining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XX asrning dastlabki yillari g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos yo‘nalishi edi.

Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Natijada Turkiston siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qoldi. Bu paytga kelib, xalq savodini oshirish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish o'zbek ma'rifatparvar yozuvchilari zimmasiga tushdi. Bu holni A.Aliev quyidagicha izohlaydi, "bunday og'ir, murakkab tarixiy vaziyatlarda iymon-etiqodi butun-vatanparvar shaxslar beparvo turolmasdi. Mazkur ijtimoiy-tarixiy vaziyat millatning ongli ziyolilarining qalbini o'rtadi." [1] O'lkaning ilg'or ziyolilari chorizm istibdodidan qutulish, millatni uyg'otish, nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot sari yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish maqsadida ma'rifatparvarlik harakatiga asos soldilar. O'zbek ma'rifatparvarlari bir harakatda uyushib, "jadidchilik harakati"ni tuzdilar.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek dramaturglari dramatik asarlari fonida yangi ijtimoiy va madaniy maqsadlar, shaxsiy o'sish va o'zgarishlarni ko'rsatishga kirishdi. Ma'rifatparvarlik g'oyalari XX asr boshlarida milliy adabiyotimizda dramaturgiyaga asos solinishi va shakllanishi, hamda yangi ilmiy o'zanda taraqqiy etishida muhim rol o'ynadi. Mahmudho'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Muin Shukurullo kabi ijodkorlarning dramalarida ma'rifatchilik g'oyalari aks ettirilishi, o'zbek dramaturgiyasida haqiqiy burilish yasab berdi.

B.Yakubov ilmiy tadqiqotlarida, "jadid dramasida o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi, davr muammolarini mujassam etgan dramalar sifatida Behbudiyning "Padarkush", Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Boy ila xizmatchi", pyesalari muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, "Ushbu dramalarda o'zgacha mavzu va muammolar ustuvorlik qilgan bo'lsa-da, faqat inson, uning qalbi, e'tiqodi va muqaddas burchi haqidagi asarlar keyingi davrlar uchun ham ahamiyatini yo'qotmay kelganini, bu esa yangi davr dramaturgiyasida dolzarbligini" [2], aytib o'tadi.

Dramatik asarda davr talqini davr nuqtayi nazardan faqat voqea va hodisalarni yoki xarakterlarni tasvirlashdan iborat emas, balki o'sha davrning muammolaridan to mamlakat qadriyatlari, ijtimoiy tizimini, inson hayotining muhim masalalarini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Dramatik asarlar orqali davrning ma'naviy, siyosiy, va iqtisodiy sharoitlarini yanada yaxshi tushunish mumkin, bu esa o'quvchiga nafaqat asarning yozilgan davrini, balki o'sha davrda yashagan kishilar hayotini ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

Metodologiya. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbek dramasida XX asr 40 – 80-yillarda sotsialistik realizm talablari asosida yozilgan Komil Yashin, A.Qahhor, Uyg'un, S.Abdulla, N.Safarov, T.To'la asrlar bilan bir qatorda, milliy xususiyatlarni realistik yo'sinda ifodalagan I.Sulton "Imon", O'.Umarbekov "Qiyomat karz" kabi bir qator ijodkorlar o'zbek milliy dramaturgiyasining rivojiga o'zlarining davr talabiga mos tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy mavzularda yaratilgan asarlari bilan salmoqli hissa qo'shishdi.

Nemis dramatik asarda davr talqini muhim ahamiyatga ega, chunki nemis dramaturgiyasi tarixan xilma-xil ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlar ta'sirida rivojlangan. XIX-asrning oxirlarida Yevropada inson hayotining ko'plab sohalariga ta'sir ko'rsatadigan davr o'zgarishlari yuz berdi. Xususan, Germaniya tarixida ham siyosiy va ijtimoiy inqirozlar, urushlar, davlat tizimining o'zgarishlari va madaniy harakatlar bo'lgan, bu o'z navbatida dramalarda davr talqini qanday amalga oshirilishini shakllantirgan. Nemis dramaturgiyasi XIX asrning so'nggi choragi va XX asrning boshlarida Yevropada keng tarqalgan naturalizm, simvolizm, impressionizm yo'nalishlari ta'sirida yangicha taraqqiy eta boshladi. Naturalizm Yevropa adabiyoti va san'atida XIX asrning 70-yillarida alohida bir yo'nalish sifatida vujudga keldi va ushbu asrning 80-90-yillarda o'zining yuksak cho'qqisiga chiqdi. Naturalizm ([fransuzcha](#): *naturalisme*; [lotincha](#): *naturalis* – tabiiy) – XIX –asrning oxirgi choragida [Yevropa](#) va [AQSH adabiyoti](#) va [san'atida](#) yuzaga kelgan oqim va ijodiy metod; real borliqni obyektiv, aniq va hissiz aks ettirishga intilgan. Naturalizm tabiiy fanlarda erishilgan muhim muvaffaqiyatlar ta'sirida yuzaga kelgan. Asosiy tasvir ob'yekti – inson, uning tabiiy va fiziologik hayot tarzi; tabiat va atrof muhitni uning maishiy va moddiy muhiti deb bilgan. Bu esa, o'z navbatida, badiiy imkoniyatlari cheklangan badiiy madaniyat taraqqiyotini ta'minladi. Fan falsafachisi Peter Yanix (1942–2016) “*Der Spiegel*” jurnalida e'lon qilingan maqolasida “naturalizmni tabiatshunoslik fanlariga nisbatan e'tiqodiy munosabat sifatida tavsiflagan edi va, mening fikrimcha, bunda u mutlaqo haq edi. Ammo naturalistlar o'zlarining “Dunyoda hamma narsa qonun-qoidalarga muvofiq sodir bo'ladi!” degan shiorini takror va takror ta'kidlashni boshlaganlarida, bu holat bema'nilik darajasiga yetadi.” [3] Zero, ilgari diniy qarashdagi tabiatshunos olimlar Xudoni aynan shunday tushunganlar: ya'ni u dunyoga tartib baxsh etuvchi, shu orqali tabiatni bilishni umuman mumkin qiladigan mohiyat yoki tamoyil sifatida qaralgan. Shu sababli ayrimlar tabiatning o'zini ham ilohiy vahiy deb hisoblab, uni o'rganish lozim, deb bilishgan. Naturalizm Germaniyada 1880-1900-yillar oralig'ida davom etgan bo'lib, voqelikni imkon qadar aniq va obyektiv tarzda aks ettirishni maqsad qilgan adabiy oqim hisoblanadi. Naturalizm vakillari realizmda uchraydigan voqelikni estetik jihatdan bezab ko'rsatish uslubini rad etib, uning o'rniga hayotni va ijtimoiy munosabatlarni ayovsiz hamda bezaksiz holda tasvirlashni ko'zlaganlar. Arno Holz naturalizmning muhim nazariyotchisi sifatida quyidagi fikrni bildirib o'tadi.

„Die Kunst soll die Natur nicht nachahmen, sondern ihr den Eindruck der Wirklichkeit abpressen.“ [4]

San'at tabiatni shunchaki taqlid qilmasligi, balki undan voqelikning haqiqiy taassurotini majburan yuzaga chiqarishi lozim.” (Tarjima bizniki – O.D.)

Holzning ushbu iqtibosi naturalistlarning voqelikni imkon qadar realistik tarzda aks ettirish talabi mavjudligini yaqqol namoyon etadi. San'at voqelikni ideallashtirmasligi yoki bezamasligi, balki uni qattiqligi va ayovsizligi bilan tasvirlashi lozimligini ta'kidlaydi

U “voqelik taassurotini majburan yuzaga chiqarish” iborasi bilan san’at voqelikni to’liq haqiqiyliги, estetik oshirib ko’rsatishlarsiz ifodalashi kerakligini nazarda tutadi.

Muhokama. Ushbu oqimlarda ijod qilgan nemis dramaturg yozuvchilari Arno Holz (1857–1928), Gerhart Hauptmann (1862–1946), Johannes Schlaf (1862–1941) nemis adabiyotining muhim vakillari hisoblanadilar. Gerhardt Hauptman ikki asr oralig’ida san’at olamida paydo bo’lgan turli yo’nalishlarda daxldor, ko’p qirrali ijodkor sarasiga kiradi. Yozuvchi dastlab naturalizm, so’ng simvolizm va neoromantizm yo’nalishlaridan o’tib, oxiri qat’iyan realistik ijod yo’lini tanlab oladi. XX asr nemis adabiyotida tanqidiy realizm shakllana boshladi, naturalizm dekantchilik oqimlari muhim o’rin egalladi, biroq ular adabiyotda unchalik ustunlik o’rnata olmadi. Naturalizm adabiyotda inson hayotini, uning muhitini va tabiiy qonunlarni o’rganishga intiladi. Naturalizm ham realizm kabi konkret hayot voqeligiga tayanadi. Ammo bu ikki adabiy metod o’rtasidagi jiddiy farq shuki, realizm voqelik va real odam obrazini tipiklashtirib tasvirlasa, naturalizm maksimal darajada individuallashtiradi. Har ikki adabiy metod o’z poetik tamoyillarini mana shu kategoriyalar ustiga quradi. Hauptman “Weber”, „To’quvchilar“ pyesasida naturalistik fikr qarashlarini izhor etar ekan shunday deydi:

„Der Mensch ist Produkt seiner Umwelt.“ [5]

Inson – o’z muhitining mahsulidir.” (Tarjima bizniki – O.D.)

Ushbu fikr orqali yozuvchi inson hayotiga ijtimoiy muhit va tashqi sharoitlarning ta’sirini tasvirlaydi. U dramasida ishchilarning hayoti ularning iqtisodiy ahvoli va yashash muhiti bilan qanday shakllanishi hamda belgilanishini ko’rsatib beradi. Ushbu iqtibos naturalizmga xos bo’lgan deterministik qarashni ifodalaydi, ya’ni insonlar o’z atrof-muhiti va kelib chiqishi tomonidan kuchli darajada shakllantiriladi, degan e’tiqodni anglatadi. Hauptmanning „To’quvchilar“ asari ishchi sinfining og’ir hayotiy haqiqatini ochib beradi hamda ijtimoiy adolatsizliklar va hukmron sinfning g’ayriinsoniy munosabatlarini tanqid qiladi. Atrof-muhitni shakllantiruvchi kuch sifatida tasvirlash orqali muallif tashqi omillarning ustuvorligini va shu bilan bog’liq ravishda individlarning erkinlikdan mahrumligini alohida ta’kidlaydi.

Nemis naturalizm dramaturgiyasida hayotning haqiqiyliğini ta’kidlash uchun sahnada noaniq, tuzilgan yoki idealizatsiya qilingan obrazlardan ko’ra, yashashning qiyinchiliklari va odamlarning barcha kamchiliklarini ochiq ko’rsatishga intildilar. Bunga misol sifatida nemis dramaturglaridan Gerhart Hauptmannni ko’rsatish mumkin, uning dramalari ijtimoiy va psixologik aspektlarni chuqur tasvirlab, mehnat sinfining azoblarini va ijtimoiy adolatsizliklarni ochib beradi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, nemis va o’zbek dramaturgiyasi XX asrda ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar fonida o’ziga xos o’xshash va farqli xususiyatlar ko’zga tashlanadi. Bir tomondan har ikki dramaturgiyaning rivojlanishida jahon urushlari, iqtisodiy inqirozlar va siyosiy bosimlar muhim omil bo’lib xizmat qilgan bo’lsa, boshqa tomondan ularning tarixiy va madaniy sharoitlari hamda ijtimoiy tizimlaridagi farqlar,

dramaturgiyada sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Nemis dramaturgiyasi XX asrda ijtimoiy-siyosiy mavzularga e'tibor qaratgan bo'lsa, o'zbek dramaturgiyasida, sotsialistik realizmning ta'siri ostida, sovet davrining o'ziga xos ijtimoiy va madaniy muhitida yozilgan asarlar ko'proq ma'rifatparvarlik va milliy qadriyatlarni yoritishga qaratildi.

XX asr nemis va o'zbek dramaturgiyasi davr talqini, har ikki jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarga javoban shakllandi. Har ikki dramaturgiya davrning murakkabligi, insonning ichki va tashqi dunyosidagi konfliktlar, va siyosiy, iqtisodiy, madaniy o'zgarishlarga bo'lgan javob tariqasida rivojlandi va o'z taraqqiy yo'lini tanlab oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алиев А. Истиқлол ва адабий мерос. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б.184.
2. Якубов Б. Замоновий ўзбек драматургияси ва унинг сахнавий талқини. (1991-2016 йй.) Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферати. – Тошкент, 2019. – Б. 13.
3. <https://lernzuflucht.de/deutsch-naturalismus/>
4. <https://scilogs.spektrum.de/menschen-bilder/was-ist-naturalismus/>
5. [de/deutsch-naturalismus/](https://www.deutsch-naturalismus.de/)

